



CULTURAL HERITAGE OF KOREANS LIVING IN SURKHANDARYA: RICE-RELATED TRADITIONS AND RITUALS

Ulgozi Ashurova

Basic Doctoral Student

Termez State University

Termez, Uzbekistan

E-mail: ulguziisroilovna95@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: korean customs, rice rituals, Baekil, Paebaek, Chuseok, wedding traditions, ancestral memorials, Seolnal, rice and tradition.

Received: 15.02.25

Accepted: 17.02.25

Published: 19.02.25

Abstract: This article examines the role of rice in traditional Korean customs and rituals. From birth to weddings, harvest celebrations, and funeral ceremonies, rice has served not only as a staple food but also as a symbol of blessing, prosperity, and ancestral respect. Traditions such as “Baekil” (100-day celebration), “Paebaek” (post-wedding ceremony), and “Chuseok” (harvest festival) vividly demonstrate the significance of rice in Korean culture. This study provides a broad insight into Korean national values and the cultural practices related to rice rituals.

SURXONDARYODA YASHOVCHI KOREYSLARNING MADANIY MEROSI: GURUCH BILAN BOG‘LIQ URF-ODATLAR VA MAROSIMLAR

Ulg‘o‘zi Ashurova

tayanch doktorant

Termiz davlat universiteti

Termiz, O‘zbekiston

E-mail: ulguziisroilovna95@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: koreys urf-odatlar, guruch marosimlari, Pekil, Paebaek, Chuseok, to‘y odatlari, xotira marosimi, Seolnal, guruch va an‘ana.

Annotatsiya: Ushbu maqolada koreyslarning an‘anaviy urf-odatlar va marosimlarida guruchning tutgan o‘rni tahlil qilinadi. Tug‘ilish, to‘y, hosil yig‘im-terimi va dafn marosimlarida guruch nafaqat asosiy oziq-ovqat mahsuloti, balki baraka, farovonlik va ajdodlarga hurmat ramzi sifatida ham qo‘llanilgan. Ayniqsa, “Pekil” (100 kunlik bayram), “Paebaek” (to‘ydan keyingi

marosim) va “Chuseok” (hosil bayrami) kabi an’alar guruchning muhimligini yaqqol namoyon qiladi. Maqola koreyslarning milliy qadriyatlari va ularning urf-odatlaridagi guruch bilan bog‘liq marosimlarini keng qamrovda yoritadi.

КУЛЬТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ КОРЕЙЦЕВ, ПРОЖИВАЮЩИХ В СУРХАНДАРЬЕ: ОБЫЧАИ И РИТУАЛЫ, СВЯЗАННЫЕ С РИСОМ

Улгози Аишурова

базовой докторант

Термезского государственного университета

Термез, Узбекистан

E-mail: ulguziisroilovna95.@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: корейские обычаи, ритуалы с рисом, Пекиль, Пэбэк, Чусок, свадебные традиции, поминальный ритуал, Сольналь, рис и традиции.

Аннотация: В данной статье анализируется роль риса в традиционных обычаях и ритуалах корейцев. Во время рождения, свадьбы, сбора урожая и похорон рис использовался не только как основной продукт питания, но и как символ благополучия, процветания и уважения к предкам. В частности, такие традиции, как «Пекиль» (праздник 100 дней), «Пэбэк» (послесвадебный ритуал) и «Чусок» (праздник урожая), ярко демонстрируют важность риса. Статья всесторонне освещает национальные ценности корейцев и связанные с рисом ритуалы в их традициях.

1. INTRODUCTION/BBEДЕНИЕ/ KIRISH

1937-yilda Stalin tomonidan amalga oshirilgan deportatsiya natijasida ko‘plab koreyslar O‘zbekiston, xususan, Surxondaryo viloyatiga ko‘chirilgan. Ular asosan qishloq xo‘jaligi, ayniqsa guruch yetishtirish bilan shug‘ullangan. Shunday qilib, guruch koreyslarning hayot tarzida, nafaqat asosiy oziq-ovqat mahsuloti sifatida, balki madaniy va diniy urf-odatlarining ajralmas qismi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etgan. Surxondaryo viloyatida yashagan koreyslar o‘zining an‘anaviy bayramlari, marosimlari va xotira tadbirlarida guruchdan keng foydalanishgan. Masalan, yangi tug‘ilgan chaqaloq uchun o‘tkaziladigan “Pekil” (백일, 100 kunlik bayram), to‘ylardagi “Paebaek” (폐백, kuyovning oilasi bilan uchrashuv) marosimi yoki hosil yig‘im-terimi bilan bog‘liq “Chuseok” (추석, hosil bayrami) kabi tadbirlarda guruch markaziy o‘rin tutgan.

Ushbu maqola Surxondaryo viloyatida yashovchi koreyslarning madaniy merosi va urf-odatlarida guruchning o‘rnini tahlil qiladi. Tarixiy kontekst, marosimlarning o‘ziga xos jihatlari

va ularning mahalliy sharoitda qanday o'zgargani yoki saqlanib qolganiga e'tibor qaratiladi. Koreyslarning ajdodlarga sig'inish, xonadon farovonligi va yangi avlodni tarbiyalash kabi an'alarida guruch qanday ma'naviy ahamiyat kasb etgani chuqur o'rganiladi. Tadqiqotimizda Surxondaryo viloyatida yashayotgan koreyslarning hayot tarzi va urf-odatlarini ilmiy yondashuv asosida ochib berishga harakat qiladi. Guruch faqat oziq-ovqat mahsuloti emas, balki milliy o'zlikni saqlash vositasi sifatida ham xizmat qilgani yoritiladi.

2. METHODS/ МЕТОДЫ/ TADQIQOTNING USULLARI

Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida yashovchi koreyslarning guruch bilan bog'liq marosim va urf-odatlarini o'rganish uchun quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llanildi:

1. Tarixiy-tahliliy yondashuv – Koreyslarning O'zbekistonga deportatsiyasi, qishloq xo'jaligidagi roli va guruch yetishtirish an'analari tarixiy manbalar asosida tahlil qilindi.

2. Etnografik yondashuv – Surxondaryo koreyslarining an'anaviy marosimlari, xususan, "Pekil", "Paebaek" va "Chuseok" bayramlari joylarda kuzatilib, mahalliy aholining og'zaki xotiralari asosida o'rganildi.

3. Taqqoslamali-tahliliy yondashuv – Koreyslarning O'zbekistondagi va Koreya yarim orolidagi marosimlari solishtirilib, mahalliy sharoitga moslashish darajasi tahlil qilindi.

3. RESULTS/ РЕЗУЛЬТАТЫ/ NATIJALAR

Koreyslarning guruch bilan bog'liq urf-odatlari va marosimlarini o'rganishda bir qator muhim ilmiy asarlarga tayanish maqsadga muvofiqdir. Xususan, nafaqat Surxondaryo viloyatida yashovchi koreyslar, balki respublikadagi barcha koreyslarning madaniy merosini tahlil qilish uchun etnografik, tarixiy va lingvistik tadqiqotlar, shuningdek, koreys olimlari va mustaqil tadqiqotchilarning ishlari o'rganildi.

Koreyslarning urf-odatlari, marosimlari va bayramlari haqidagi ma'lumotlar L.R. Kontsevich [1], Min L.V. [2], T.M. Simbirtseva va Yu.V. Ionovanning ilmiy ishlari asosida tahlil qilindi [3]. Ushbu manbalarda ajdodlarga sig'inish, to'y marosimlari, hosil bayramlari va motam marosimlari haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, Jarilgasinova R.Sh. [4] va Ionova Yu.V.ning Sharqiy Osiyo xalqlari kalendar odatlari va marosimlari bo'yicha ishlari koreyslarning an'anaviy marosimlari haqida aniq tasavvur beradi. Ayniqsa, "Chuseok" (추석, hosil bayrami) va "Paebaek" (폐백, to'ydan keyingi rasmiy marosim) haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Koreyslarning qishloq xo'jaligi va ayniqsa guruchchilik bilan bog'liq hayoti Kim V.D. [5], Li G.N. [6] va Park Jong-Sik [7] kabi mualliflarning asarlarida o'z aksini topgan. Bu tadqiqotlar koreyslarning deportatsiya jarayoni, yangi sharoitga moslashishi va madaniy merosini saqlab qolish usullari haqida muhim dalillarni o'z ichiga oladi. Shuningdek,

Mazur Yu.N., Mozdykov V.M. va Usatov D.M. tomonidan tayyorlangan koreyscha-ruscha lugʻat ham tahlil qilindi, chunki maqolada koʻplab koreyscha atamalar qoʻllangan[8].

Koreyslarning hayotida guruchning ahamiyati DONG-A ensiklopediyasi [9] va Seul Herald [10] manbalarida atroflicha yoritilgan. Ular orqali koreyslarning milliy qadriyatlari va urf-odatlaridagi guruchning diniy va ijtimoiy rolini oʻrganish imkoniyati yaratildi. Koreys anʼanalarida guruchning marosimlardagi oʻrni R. Qirol tomonidan “Arirang” gazetasida chop etilgan maqolalar orqali ham tahlil qilindi. Ushbu manbalar koreyslarning ajdodlarga sigʻinish, guruchli qurbonliklar va motam marosimlari haqidagi anʼanalarini batafsil yoritadi[1].

Koreyslarning Surxondaryo viloyatidagi hayoti, anʼanaviy madaniyati va marosimlari, ayniqsa guruch bilan bogʻliq urf-odatlari, ular uchun faqat kundalik hayotning bir qismi emas, balki madaniy meros va milliy oʻzlikni saqlashning muhim omili hisoblanadi. Guruch, nafaqat oziq-ovqat mahsuloti sifatida, balki baraka, farovonlik, ajdodlarga hurmat, hosilning moʻlligi va oilaviy baxt ramzi sifatida ham oʻzining alohida oʻrniga ega boʻlib qolmoqda.

Surxondaryoda yashovchi koreyslar asosan 50-yillarning ikkinchi yarmidan mintaqaga koʻchib kelishni boshlaganlar. Va ular maʼlum vaqtgacha tugʻilish, toʻy va motam marosimlarida guruchdan keng foydalanishda davom etganlar. Masalan, “Pekil” (백일, 100 kunlik bayram) chaqaloqning birinchi 100 kunini nishonlash marosimi boʻlib, bu davrda guruch va boshqa maxsus taomlar tayyorlanadi. Samsin Halmoniy (삼신할머니) – tugʻilish xudosi ruhiga guruch va shoʻrva qurbonlik sifatida taqdim etilishi ushbu anʼananing oʻtmishdan kelayotgan ildizlarini namoyon qiladi. Koreyslarning toʻy marosimlarida ham guruch muhim rol oʻynaydi. “Paebaek” (폐백) marosimida kelin kuyovning ota-onasiga hurmat bajo keltiradi va bu paytda maxsus guruchli taomlar tayyorlanadi. Surxondaryo koreyslari orasida kelinning uyga kelayotganida guruch ustiga qadam qoʻyishi odati saqlanib qolgan, bu esa yangi oilaga boylik va toʻkinlik olib kelish ramzi sifatida tushuniladi.

Motam marosimlarida ham guruch muhim rol oʻynaydi. Ajdodlarni xotirlash marosimlarida “Charye” (차례) deb nomlangan qurbonlik taomi tayyorlanib, unga “pabi” (밥, oddiy guruch), “chalb sari” (찰밥, yopishqoq guruch) kabi maxsus taomlar kiritiladi. Dafn marosimida esa qabr yoniga toq sonli guruch idishlari qoʻyilishi anʼanasi saqlanib qolgan.

Surxondaryoga koʻchirilgan koreyslar dastlab ogʻir sharoitda yashashgan, ammo suv xoʻjaligi va guruch yetishtirish boʻyicha katta tajribaga ega boʻlganliklari sababli tezda qishloq xoʻjaligiga moslashishgan. Koreyslar tomonidan tashkil etilgan “Iskra” va “Pogranichnik” kolxozlari aynan guruchchilik bilan shugʻullangan. Ushbu kolxoz hududida yashovchi keksa avlod vakillarining eslashicha, guruch ekish va hosil yigʻim-terimi bilan bogʻliq marosimlar, xususan,

“Chuseok” (추석, hosil bayrami) marosimini ular ko‘p yillar davomida bajarganlar. Surxondaryodagi koreyslar bu bayramda ajdodlarning qabrlarini ziyorat qilib, guruchli taomlar bilan xotira marosimini o‘tkazishgan. Shuningdek, “songpyeon” (송편, bug‘langan guruchli pirog) tayyorlash an‘anasi saqlanib qolgan.

Koreys madaniyatida guruch diniy ma‘noda ajdodlarga sig‘inish, oila barakasi va hayotning davomiyligi bilan bog‘liq bo‘lgan. Konfutsiylik ta‘limoti ta‘sirida koreyslar ota-onalar va ajdodlarga hurmatni o‘z hayotlarining markaziy qadriyati sifatida qabul qilishgan. Bu qadriyat Surxondaryodagi koreyslar orasida ham saqlanib qolgan. Masalan, ajdodlarni xotirlash marosimida (차례 – “Charye”) stolga guruch va boshqa taomlar qo‘yilib, ajdodlar ruhi bilan ramziy bog‘lanish hosil qilish uchun maxsus ibodatlar o‘qiladi. Ushbu marosim koreys diasporasi orasida, jumladan, Surxondaryo viloyatidagi oilalarda hozigacha ham davom etmoqda.

Surxondaryodagi koreyslar o‘z urf-odatlarini asosan oilaviy doirada davom ettirishgan. Biroq, Sovet davrida diniy va milliy marosimlarning ko‘pchiligi rasmiy taqiqlarga uchragan. Natijada ba‘zi an‘analar soddalashtirilgan yoki mahalliy urf-odatlar bilan uyg‘unlashgan. Masalan: to‘y marosimlarida avvalgi qurbonlik amaliyoti kamaygan, lekin guruch sepish odati hanuzgacha saqlanib qolgan. Chuseok bayrami esa oilaviy doirada nishonlangan, ammo uning ommaviy marosim sifatida o‘tkazilishi kamaygan.

Hozirgi kunga kelib koreyslar orasida guruchning diniy ma‘nosi pasaygan, biroq oziq-ovqat va ramziy ahamiyati kuchli saqlanib qolgan.

DISCUSSION /ОБСУЖДЕНИЕ/ MUHOKAMA

Ushbu tadqiqotimiz Surxondaryo viloyatida yashovchi koreyslarning madaniy merosi va guruch bilan bog‘liq marosimlarini tahlil qilish orqali quyidagi muhim natijalarga olib keldi:

1. Guruch koreyslarning hayotida nafaqat oziq-ovqat, balki diniy va ijtimoiy ramz sifatida muhim rol o‘ynaydi. Tug‘ilish, to‘y va motam marosimlarida guruch muqaddas element sifatida ishlatiladi. Ajdodlarni xotirlash va oilaviy barakani ta‘minlash uchun guruch qurbonlik sifatida taqdim etilgan.

2. Surxondaryo viloyatidagi koreyslar milliy urf-odatlarini saqlab qolgan, biroq ular mahalliy sharoitga moslashgan. “Pekil” (백일, 100 kunlik bayram), “Paebaek” (폐백, to‘ydan keyingi marosim) va “Chuseok” (추석, hosil bayrami) kabi an‘analar O‘zbekiston sharoitida davom ettirilmogda. Guruch ustiga qadam qo‘yish, guruch sepish, ajdodlarni xotirlash uchun qurbonlik taomlari tayyorlash odatlari saqlanib qolgan.

3. Sovet davrida koreyslarning diniy marosimlari cheklangan bo‘lsa-da, ularning asosiy an‘analari omon qolgan va oilaviy doirada davom ettirilgan. Dafn marosimlarida guruch taomlari

haligacha muhim o‘rin tutadi. Hosil bayrami va to‘y marosimlari o‘zgargan shaklda saqlangan, ammo milliy mohiyatini yo‘qotmagan.

4. Koreyslarning O‘zbekistondagi tarixiy merosi guruch yetishtirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ularning qishloq xo‘jaligidagi roli katta ahamiyat kasb etgan.

“Iskra” va “Pogranichnik” kolxozlari guruchchilikning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. Koreys dehqonlari tomonidan qo‘llangan an‘anaviy guruch yetishtirish usullari mahalliy qishloq xo‘jaligiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan.

5. Bugungi kunda yosh avlod orasida koreys milliy urf-odatlariga qiziqish ortib bormoqda. O‘zbekistondagi koreys diasporasi o‘z an‘analarini mahalliy madaniyat bilan uyg‘unlashtirib davom ettirmoqda.

4. CONCLUSION/ ЗАКЛЮЧЕНИЕ/ XULOSA

Surxondaryo viloyatida yashovchi koreyslarning madaniy merosi va guruch bilan bog‘liq marosimlari uzoq tarixiy jarayonlar, ijtimoiy o‘zgarishlar va mahalliy muhit bilan uyg‘unlashgan holda rivojlangan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, guruch koreyslar uchun faqat asosiy oziq-ovqat mahsuloti bo‘lib qolmay, balki diniy, ramziy va ijtimoiy jihatdan muhim unsur sifatida saqlanib qolgan.

Birinchidan, guruch tug‘ilishdan boshlab hayotning barcha bosqichlarida muhim rol o‘ynaydi. Ikkinchidan, hosil bayrami va dehqonchilik bilan bog‘liq marosimlar Surxondaryo koreyslari orasida saqlanib qolgan. Uchinchidan, Sovet davri koreyslarning diniy va milliy marosimlariga ta‘sir qilgan bo‘lsa-da, oilaviy doirada an‘analar saqlanib qolgan. Ayrim urf-odatlar soddalashtirilgan yoki mahalliy o‘zbek madaniyati bilan uyg‘unlashgan holda shakllangan. To‘rtinchidan, koreys diasporasi O‘zbekistonda o‘zining qishloq xo‘jaligi tajribasi, ayniqsa guruch yetishtirish sohasidagi bilimi bilan tanilgan. Ularning mehnatsevarligi va an‘anaviy qishloq xo‘jaligi usullari mahalliy qishloq xo‘jaligiga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan.

Xulosa qilib aytganda, Surxondaryo viloyatidagi koreyslarning guruch bilan bog‘liq marosimlari ularning tarixiy xotirasi, diniy e‘tiqodi va ijtimoiy munosabatlarini aks ettiruvchi muhim madaniy meros sanaladi. Bu an‘analar nafaqat milliy o‘zlikni saqlab qolish, balki madaniyatlararo muloqotning muhim qismi sifatida ham qadrlanadi.

5. REFERENCES СПИСОК ИСТОЧНИКОВ/ FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Kontsevich L.R. Корейцы: традиции и обряды. Москва: Восточная литература. 2001. с. 320.
2. Min L.V. Культурные традиции корейцев в странах СНГ. Санкт-Петербург: Наука. 1998. с. 256.

3. Simbirtseva T.M., Ionova Yu.V. Календарные обряды народов Восточной Азии. Москва: Институт востоковедения РАН. 2004. с. 288
4. Jarilgasinova R.Sh. Обычаи и ритуалы корейского народа: Историко-этнографическое исследование. Алматы: Дайк-пресс. 1999. с. 220.
5. Kim V.D. История корейцев в Центральной Азии. Ташкент: Университетская книга. 1995. с. 300.
6. Li G.N. Корейские поселения в Узбекистане: история и современность. Ташкент: Академия наук Узбекистана. 1998. с.275.
7. Park Jong-Sik. The Cultural Heritage of Korean Farmers in Central Asia. Seoul: Dong-A Publishing. (1954. p. 150.
8. Mazur Yu.N., Mozdykov V.M., Usatov D.M. Корейско-русский словарь. Москва: Русский язык. 2002. с. 450.
9. DONG-A Encyclopedia. Traditional Korean Customs and Ceremonies. Seoul: Dong-A Publishing House.1994. p. 400.
10. Seoul Herald. Korean Rituals and their Evolution in Modern Society. Seoul: Herald Press. 2002. p. 180
11. Qirol R. Rice in Korean Rituals: A Cultural Analysis. Arirang Newspaper, Vol. 56, No. 4. 2003. P. 12-15
12. Ли Григорий Николаевич. Обычаи и обряды корейцев России и СНГ. Москва: Российская академия естественных наук. 2003. с. 350.